

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XASANOV MUZAFAR SADIKOVICH

**CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI
KASBIY TAYYORGARLIGINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Xasanov Muzaffar Sadikovich

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligining pedagogik-
psixologik xususiyatlari3

Хасанов Музафар Садикович

Педагогико-психологические особенности профессиональной подготовки
слушателей военного образования перед призывом.....21

Xasanov Muzafar Sadikovich

Pedagogical-psychological features of professional training of students of military
education before the call-up41

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XASANOV MUZAFAR SADIKOVICH

**CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI
KASBIY TAYYORGARLIGINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/P1050 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna**
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Abdurasulov Rustam Abduraimovich**
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nurillayev Adxam Axmadovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__»_____soat____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185. Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__ - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185. Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32;

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__»_____ kuni tarqatildi

(2025-yil «__»_____da __ - raqamli reestr bayonnomasi)

F.A.Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy tayyorgarligini oshirish, harbiy xizmatchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarlik ko'nikmalarini rivojlantirish, har qanday jangovar sharoitlarda paydo bo'lgan to'siq va g'ovlardan o'tish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy kadrlarni tayyorlash uchun yuqori sifatli ta'lim berishni ta'minlaydigan murakkab vazifalarni talab etmoqda. Butun jahonda kasbiy tayyorgarlik muammosi bo'yicha ilg'or tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. «Dunyo bo'yicha, har yili kadrlarning 79 % kasbiy tayyorgarligi yuqoriligi bois, yuqori lavozimlarga tayinlanadi. Jumladan, Garvard universiteti hamda Karnegi jamg'armasi tadqiqotlariga ko'ra, sohalararo kasblarda muvaffaqiyatlarga erishish mezonini 75% umumkasbiy tayyorgarlik mezonlariga to'g'ri kelishi tasdiqlangan»¹. Sohada kechayotgan integratsiyalashuv jarayoni sharoitida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini harbiy-kasbiy tayyorgarligini oshirish, jahondagi yetakchi oliy harbiy ta'lim muassasalarida yaratilgan imkoniyatlardan foydalangan holda harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini yaratishga zaruriyat kuzatilmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasasi va ilmiy tadqiqot markazlarida yuz berayotgan hodisalar zamonaviy armiyani shakllantirish, harbiy xizmatchilarning jismoniy, kasbiy bilim, ko'nikma va malaka, kasbiy tayyorgarliklarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini harbiy xizmatga psixologik tayyorgarlik ijtimoiy ravishda belgilangan xususiyatga ega bo'lib, chaqiruvchilarning faollikka, ular uchun zarur bo'lgan harbiy sifatlarni rivojlantirish yo'llarini aniqlashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Yangi O'zbekistonda harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro standartlar talablariga mos, raqobatbardosh oliy ma'lumotli harbiy kadrlarni tayyorlash maqsadida so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - bu millati, tili va kasbidan qat'iy nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatida»² chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy tayyorgarligi zarurligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» PF-60-son, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida», 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6017-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish

¹ Proceedings of the 2021 Carnegie Endowment for International Peace. (May 24) Carnegie Endowment for International Peace <https://carnegieendowment.org>.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-iyuldagi «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi³ Qaror hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan Sh.H.Abdullayeva, N.D.Ahmedova, D.N.Arziqulov, S.X.Djalilova, M.X.Nazaraliyeva, A.A.Nurullayev, L.Ya.Olimov, S.B.Qilicheva, M.S.Qodirov, L.U.Ravshanov, J.R.Shukurov va boshqalar kasbiy faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy kompetensiya bilan bog'liq tadqiqot ishlarini olib borganlar. Biroq, aynan chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalalari ilmiy tadqiqot etilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi psixolog olimlaridan Sh.A.Amonashvili, N.S.Aulova, A.A.Bodalev, O.A.Bulavenko, J.G.Garanina, A.A.Dunyushin, O.A.Konopkin, N.A.Kuzmina, M.D.Lapteva, E.K.Markova, L.M.Mitina, Y.A.Mileryan, A.V.Raysyev, Z.A.Reshetova, Y.M.Jukov, V.D.Shadrikov, P.A.Shavir E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya va boshqalar tadqiqotlarida professional kompetentlik va uning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri masalalarini ilmiy tadqiqot etishgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan T.Buchanan, M.F.Green, G.J.Jogerst, A.F.Jorm, Z.S.Nasreddine, N.A.Phillips, A.E.Puente va boshqa olimlar o'z tadqiqotlarida kasbiy tayyorgarlikka ta'sir qiluvchi pedagogik-psixologik omillar va ularning jihatlari ochib berilgan. Kasbiy tayyorgarlikning metodologik asoslari va rivojlanishi xorijlik olimlar A.Puankare, F.Galtom, P.Bimmel, J.Raven, K.Kleppin, G.Neuner tadqiqot ishlarida aks etgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining «Psixologiya tarixini o'rganish, umumiy psixologiya mazmunini o'zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konseptual asoslarini tadqiq qilish» nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligining pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabarlari kasbiy tayyorgarligining ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni shakllanishiga identiv ekanligini asoslash;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda ta'lim jarayonidagi texnologik vositalar bilan ishlash ko'nikmalari, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabarlari kasbiy tayyorgarligining pedagogik-psixologik xususiyatlari tanlangan bo'lib, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat universiteti va Farg'ona davlat universitetining chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabarlari jami 297 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etildi.

Tadqiqotning predmeti chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabarlari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik - psixologik xususiyatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqotda suhbat, kuzatish metodlaridan, shuningdek, V.N.Kunisining «Kommunikativ va ijtimoiy kompetentligi aniqlash» so'rovnomasi, M.V.Chumakovning «Kasbiy irodaviy-mas'uliyat sifatlarini o'rganish» so'rovnomasi, N.N.Obozovning «Iroda kuchini baholash» so'rovnomasi, V.V.Boykoning «Empatiya darajasini diagnostikasi» metodikalaridan foydalanildi, olingan natijalarning ishonchliligi matematik-statistik metodlardan Styudentning t-mezoni, Pirsonning r-korrelyatsiya mezoni orqali tasdiqlandi, ma'lumotlarni qayta ishlashda SPSS dasturi imkoniyatlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligining rivojlanishi insonlarni va vaziyatni tushunish, uddaburonlik, axloqiy ustanovkalar, emotsional barqarorlikning kasbiy mas'uliyat bilan uyg'un holda talabalarda professional imidjni tarkib topishiga asoslanib ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikning shakllanishiga identiv ekanligi dalillangan;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligining ta'limiy va jangovar shaylik oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarda mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, matonatlilik, qat'iyatlilikning empatiyaning ratsional, emotsional, intuitiv kanaliga integrativ shakllanishiga asoslanib shaxs hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlanganligi darajasiga identiv namoyon bo'lishi dalillangan;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligining rivojlantirish modeli ta'lim jarayonidagi ijodiy g'oyalarni amaliyotga integrasiyalashda irodaviy sifatlarga ustuvorlik berish orqali jangovor taktik, kommunikativ, kreativlik sifatlarni shakllanishiga erishish muhimligi tufayli «motivatsion», «kognitiv», «integrativ-faoliyatli» komponentlarni pedagogik-psixologik vektorga modellashtirish asosida takomillashtirilgan;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligining oshirishda ta'lim jarayonidagi texnologik vositalar bilan ishlash ko'nikmalari ijodiy fikrlash, kommunikativ dialog va aks etuvchi qobiliyatlarni shakllanishiga axborotlarni professional jihatdan qo'llash bilan bog'liq vaqtinchalik va fazoviy chegaralarni belgilash xususiyati muhim ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligining rivojlantirishning xususiyatlari bilan bog'liq dalillarning keltirilganligi kasbiy tayyorgarliklarni prognozlash, psixologik rivojlantiruvchi ishlar samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratilgan;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligining kurs bo'yicha namoyon bo'lish darajasining o'ziga xos xususiyatlari empirik jihatdan tahlil qilingan va amaliyotda aprotatsiya qilingan;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonining psixik va empatiya darajasi bilan o'zaro aloqadorligi empirik tadqiqotlarda aniqlanib, zarur psixotrening dasturi yaratilgan, amaliyotga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot respondentlarining yetarlicha reprezentativligi; olingan empirik miqdoriy ko'rsatkishlarning matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilingani; tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslangani, xalqaro miqyosida e'tirof etilgan metodikalar vositasida o'rganilgani, empirik izlanishlar nazariy asoslab berilgani va olingan natijalar aniq matematik-statistik metodlar va ma'lumotlarni qayta ishlash dasturi yordamida korrelyatsion qayta ishlangani va shu asosda psixologik interpretatsiya qilingani, xulosa, taklif, tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani; tadqiqot maydoni sifatida turli hududlardagi muassasalar tanlangani; olingan natijalar keng ilmiy jamoatshilik o'rtasida muhokama qilinib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim muassasalari talabalarining axborot-texnologiyalari bo'yicha kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi va amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, xulosalar va ishlab chiqilgan tavsiyalar chaqiriqqacha harbiy-ta'lim yo'nalishi talabalarining axborot texnologik vositalari asosida ishlash kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish, mazmunini boyitish, sifat va samaradorligini oshirishga ijobiy ko'rsatkichga olib borishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligining pedagogik-psixologik xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot ishi natijalari asosida:

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlanishi insonlarni va vaziyatni tushunish, uddaburonlik, axloqiy ustanovkalar, emosional barqarorlikning kasbiy mas'uliyat bilan uyg'un holda talabalarda professional imidjni tarkib topishiga asoslanib ijtimoiy-kommunikativ

kompetentlikning shakllanishiga identiv ekanligi dalillangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-18-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-218-a-son ma'lumotnomasi). Natijada chaqiriqqacha harbiy ta'lim talabalarining kasbiy tayyorligini oshirishning psixologik jihatlari ochib berilgan;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligi ta'limiy va jangovar shaylikni oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarda mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, matonatlilik, qat'iyatlilikning empatiyaning ratsional, emotsional, intuitiv kanaliga integrativ shakllanishiga asoslanib shaxs hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlanganligi darajasiga identiv namoyon bo'lishi dalillangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-218-son buyrug'i bilan «Umumiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-218-a-son ma'lumotnomasi). Natijada chaqiriqqacha harbiy ta'lim talabalarining kasbiy tayyorligini oshirishda hissiy-irodaviy sifatning o'rni tadqiq qilingan;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modeli ta'lim jarayonidagi ijodiy g'oyalarni amaliyotga integratsiyalashda irodaviy sifatlarga ustuvorlik berish orqali jangovor taktik, kommunikativ, kreativlik sifatlarni shakllanishiga erishish muhimligi tufayli «motivasion», «kognitiv», «integrativ-faoliyatli» komponentlarni pedagogik-psixologik vektorga modellashtirish asosida takomillashtirilgan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-218-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-218-a-son ma'lumotnomasi). Natijada chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda ta'lim jarayonidagi texnologik vositalar bilan ishlash ko'nikmalari ijodiy fikrlash, kommunikativ dialog va aks etuvchi qobiliyatlarni shakllanishiga axborotlarni professional jihatdan qo'llash bilan bog'liq vaqtinchalik va fazoviy chegaralarni belgilash xususiyati muhim ekanligi dalillangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-218-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-218-a-son ma'lumotnomasi). Natijada chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishning psixologik jihatlari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 4 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada maqola muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarida 8 ta maqola, shundan 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish mantiqiy jihatdan ilmiy asoslab tahlil etilgan. Mazkur bobda chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar jahonning ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan olib borilganligi tahliliga bag'ishlangan materiallar keltirilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan T.Buchanan, M.F.Green, G.J.Jogerst, A.Jorm, Z.S.Nasreddine, N.A.Phillips, A.E.Puente va boshqa olimlar o'z tadqiqotlarida kasbiy kompetentlikka ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar va ularning komponentlarni ochib berganlar. Kompetentli yondashuv metodologik asoslarining tiklanishi va rivojlanishiga xorijlik olimlar A.Puankare, F.Galtom, P.Bimmel, J.Raven, K.Kleppin, G.Neuner tadqiqot ishlarida aks etgan.

O'zbek olimlaridan Sh.H.Abdullayeva, N.D.Ahmedova, D.N.Arziqulov, C.X.Djalilova, F.I.Haydarov, U.Inoyatov, D.U.Mamadiyarova, Y.K.Narmetova, M.X.Nazaraliyeva, A.A.Nurullayev, L.Ya.Olimov, M.Ochilov, S.B.Qilicheva, M.S.Qodirov, L.U.Ravshanov, J.R.Shukurov singari olimlar kasbiy faoliyat, kasbiy shakllantirish, o'qish motivlari, kasbiy xususiyatlar rivojlanishining o'ziga xosliklari, kasbiy kamolot va uning bosqichlari kabi masalalarni o'rganish yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini tadqiq etish masalasi**»ga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bobda chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetentlik jarayoni namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari, chaqiriqqacha

harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetentlik muammosini o'rganishning metodologik ta'minoti hamda tadqiqotda qo'llanilgan metodikalarning umumiy tavsifi, o'tkazilish tartibi, olingan natijalarning tahlili va korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash bosqichlari keltirilgan.

Tadqiqotda chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni o'rganish maqsadida V.N.Kunisining «Kommunikativ va ijtimoiy kompetentligi aniqlash» so'rovnomasi, M.V.Chumakovning «Kasbiy irodaviy-mas'uliyat sifatlarini o'rganish» so'rovnomasi, N.N.Obozovning «Iroda kuchini baholash» so'rovnomasi, V.V.Boyko tomonidan ishlab chiqilgan «Empatiya darajasini diagnostikasi» metodikalaridan foydalanildi, olingan natijalarning ishonchliligi matematik-statistik metodlardan Studentning t-mezoni, Pirsonning r-korrelyatsiya mezonini orqali tasdiqlandi, ma'lumotlarni qayta ishlashda SPSS dasturi imkoniyatlaridan foydalanildi.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentlik rivojlanishga qaratilganligi talabalar bilan tadqiqot olib borildi. Tadqiqot obyekti qilib, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat universiteti va Farg'ona davlat universitetlarining chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining jami 297 nafar talabalarini jalb etilgan. Endi bevosita tadqiqotimizga jalb qilingan chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentlik mezonlarini rivojlanganlik darajasini tadqiq etamiz. Buning uchun dastlab V.N.Kunisining «Kommunikativ va ijtimoiy kompetentlikni aniqlash» so'rovnomasi asosida olingan natijalar tahliliga to'xtalib o'tamiz(1-jadval).

1-jadval

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalaridagi kommunikativ va ijtimoiy kompetentlikni rivojlanganlik darajasi (n=297)

Omillar	O'rtacha qiymat		t
	1-kurs talabalarini n ₁ =122	3-kurs talabalarini n ₂ =175	
Insonlarni tushunish	8,13	11,02	-2,05*
Vaziyatlarni tushunish	9,39	11,44	-2,13*
Uddaburonlik	9,41	11,22	-2,20*
Axloqiy ustanovkalar	8,32	10,08	-2,01*
Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	10,12	12,46	-3,03*
Emotsional barqarorlik	8,76	10,67	-2,12*
Imidj	8,46	10,43	-3,00*
Sotsial psixologik kompetentlik	9,08	11,40	-3,23*
Verbal kompetentlik	8,07	10,95	-2,99*
Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	8,56	10,34	-3,03*
Ego kompetentlik	9,00	11,33	-2,74*
Kommunikativ kompetentlik	8,17	11,19	-2,41*
Ishonchlilik	9,34	11,27	-2,03*
Barqaror insoniy munosabatlar	8,20	10,20	-3,22*
Kommunikativ shaxslilik imkoniyati	9,24	11,36	-3,01*

Izoh: * - (p≤0,05); ** - (p≤0,01)

Keltirilgan natijalarga ko'ra, barcha omillar o'rtasida ishonchli farqlar qayd etildi. Jumladan, birinchi kurs talabalarida sotsial psixologik kompetentlik (t=-3,23;

$p \leq 0,05$), operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik ($t = -3,03$; $p \leq 0,05$), kommunikativ kompetentlik ($t = -2,41$; $p \leq 0,05$), barqaror insoniy munosabatlar ($t = -3,22$; $p \leq 0,05$) shkalalari bo'yicha past ko'rsatkichni ko'rsatdi. Bu esa uchinchi kurs talabalarini harbiy jamoa bilan ishlash, faoliyatni tashkil qilish va uni o'tkazish jarayonida, xususan shaxsiy tarkib bilan olib boriladigan psixoprofilaktik suhbatlar, ko'rsatmalarni rasmiylashtirish jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazish ehtimoli borligidan dalolat beradi. Imidj ($t = -3,00$; $p \leq 0,05$), verbal kompetentlik ($t = -1,99$; $p \leq 0,05$), insonlarni tushunish ($t = -2,05$; $p \leq 0,05$), vaziyatlarni tushunish ($t = -2,13$; $p \leq 0,05$), muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi ($t = -3,03$; $p \leq 0,05$) shkalalari bo'yicha statistik farqlarning namoyon qilganligini ijobiy holat sifatida qayd etish mumkin. Mazkur metodikadan olingan natijalar tahlili bo'yicha uchinchi kurs talabalarining o'z professional imidjini (imidj va ego-kompetentlik) shakllanishi bilan bog'liq shaxs xususiyatlari (vaziyatni, insonlarni tushunish, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi) nutqiy ta'sir etish ko'nikmasini faollashuviga olib kelganligi aniqlangan. Shu boisdan ham, yosh mutaxassislarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning sotsial komponentlarini faollashuvi muhim ahamiyatga ega. Aksincha, to'rtinchi kurs talabalarida barcha shkalalar bo'yicha o'rtacha yoki yuqori ko'rsatkichni namoyon qilganligi shaxsiy tarkib va shaxslararo munosabatlarini to'g'ri tashkil qilish va uni o'tkazish jarayonida respondentlarni adekvat baholash imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini davlatning xavfsizligi, chegaralarning daxlsizligi, tinchligi, suverineteti va erkinliklarini ta'minlashga mas'ul bo'lgan bo'lajak davlat xizmatchilari hisoblanadi. Ana shu mas'uliyat xodimdan birinchi navbatda o'z kasbining bilimdoni, ustasi bo'lishni talab qiladi.

O'z kasbining bilimdoni bo'lish uchun nafaqat harbiy soha fanlarini, balki shaxslarning ruhiy holati va kechinmalarini ham yaxshi bilish kerak bo'ladi. Bu esa har bir chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentlik psixologiya ilmining sir-asrorlaridan xabardor bo'lish va shu asosda qonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

2-jadval

«Kasbiy irodaviy-mas'uliyat sifatlarini o'rganish» so'rovnomasi umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari, n=297

Omillar	O'rtacha qiymat		t
	1-kurs talabalari n ₁ =122	3-kurs talabalari n ₂ =175	
Mas'uliyatlilik	4,21	3,92	1,0
Tashabbuskorlik	3,53	5,25	-2,2*
Jur'atlilik	2,61	3,49	-0,8
Matonatilik	4,82	4,85	-1,1
Qat'iylik	3,50	3,86	-0,6
G'ayratlilik	6,15	4,75	2,4*

Izoh: * - ($p \leq 0,05$); ** - ($p \leq 0,01$)

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining «Kasbiy irodaviy-mas'uliyat sifatlarini o'rganish» so'rovnomasi bo'yicha tashabbuskorlik ($t = -2,2$;

$p \leq 0,05$) xususiyatlarining namoyon qilganligi va bu natija ularda kasbiy faoliyatga nisbatan tashabbuskorlik mezonini bo'yicha ishonchli farqlar kuzatilgan.

Navbatdagi shkala g'ayratlilik mezonini ($t=2,4$; $p \leq 0,05$) bo'yicha birinchi kurs talabalarini uchinchi kurs talabalariga nisbatan g'ayratlilik, shijoatlilik xususiyatlarini namoyon qilgan. Bu esa, ularda kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorligi va barqaror shaxs sifatleri shakllanganligidan darak beradi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida V.V.Boykoning «Empatiya darajasini aniqlash diagnostikasi» metodikasi o'tkazildi va tahlil qilindi. (3-jadvalga qarang)

Mazkur metodikani qo'llashdan maqsad empatiyaga tayanib, shaxsning xatti-harakatlarini o'rganish nazarda tutilgan. Bu orqali esa oqilona-emotsional-intuitiv tushunish yuzaga keladi. Boshqa odamga, uning subyektiv voqeligiga chinakam, samimiy qiziqish empatiyaning asosiy vazifasidir.

3-jadval

V.V.Boykoning «Empatiya darajasini aniqlash diagnostikasi» metodikasi bo'yicha olingan natijalari (n=297)

Omillar	O'rtacha qiymat		t
	1-kurs talabalari $n_1=122$	3-kurs talabalari $n_2=175$	
Empatiyaning ratsional kanali	11,3	14,2	-2,36*
Empatiyaning hissiy kanali	11,1	13,2	-2,57*
Empatiyaning intuitiv kanali	13,9	14,2	-1,34
Empatiyaga imkon beruvchi ustanovkalar	12,1	13,3	-1,78
Empatiyaning kirishish qobiliyati	13,0	15,1	-2,17*
Empatiyada identifikatsiya	12,5	12,8	-0,38

Izoh: * - ($p \leq 0,05$); ** - ($p \leq 0,01$)

Olingan dastlabki tadqiqot natijalariga ko'ra 1 va 3-kurs talabalarini ko'rsatkichlarida «Empatiyaning ratsional kanali» ($t=-2,36$; $p \leq 0,05$), «Empatiyaning hissiy kanali» ($t=-2,57$; $p \leq 0,05$), «Empatiyaning kirishish qobiliyati» ($t=-2,17$; $p \leq 0,05$) omillarida ishonchli farqlar qayd etildi. Empatiyaning ratsional kanali shkalasi bo'yicha kurslar o'rtasida tafovutlar bo'lib, asosan natijalardagi ko'rsatkich uchinchi kurs talabalarida yuqori ekanligi aniqlandi.

Uchinchi bosqich talabalarini birinchi bosqich talabalariga qaraganda shaxsning mavjudligiga - uning holatiga, muammolariga, xatti-harakatlariga hamdardlik bildiruvchi sub'ektning diqqatini, idrok etishini va fikrlashini tavsiflaydi. Bu jarayon boshqasiga o'z-o'zidan qiziqish, sherikning hissiy va intuitiv aks ettirish eshiklarini ochadi. Uchinchi bosqich talabalaridagi empatiyaning ratsional komponentida mantiq yoki qiziqish motivatsiyasini boshqasidan qidirmaslik kerak.

«Empatiyaning hissiy kanali» omilida ham uchinchi bosqich talabalarida birinchi bosqich talabalariga nisbatan yuqori natija qayd etildi. Bunda asosan sinaluvchi uchinchi bosqich talabalarining empatiya sub'ektining boshqalar bilan hissiy rezonanslash qobiliyati qat'iyiligi, empatiya qilish, bu holda hissiy sezgirliklari sherikning energiya maydoniga «kirish» vositasiga aylanadi. Uchinchi bosqich talabalarini shaxsning ichki dunyosini tushunish, xulq-atvorini bashorat qilish va

samarali ta'sir qilishiga asoslanib, ular haqida dastlabki ma'lumotlarning etishmasligi sharoitida harakat qilish qobiliyatini ko'rsatadi. Shuningdek, sezgi darajasida sheriklar haqidagi turli ma'lumotlar yopiq va umumlashtiriladi. Ulardagi sezgi, ehtimol, sheriklarni mazmunli idrok etishdan ko'ra, baholash stereotiplariga kamroq bog'liqdir.

«Empatiyaning kirishish qobiliyati» omili ham uchinchi bosqich talabalarida ustun ekanligi ma'lum bo'ldi. Empatiyani rag'batlantiradigan yoki to'sqinlik qiladigan sozlamalar mos ravishda barcha empatik kanallarning ishlashini osonlashtiradi yoki to'sqinlik qiladi. Agar biror kishi shaxsiy aloqadan qochishga harakat qilsa, boshqa odamga qiziqish ko'rsatishni noo'rin deb hisoblasa, o'zini boshqalarning tajribasi va muammolariga xotirjam munosabatda bo'lishga ishontirsa, empatiyaning samaradorligi pasayadi. Bunday fikrlash tarzi hissiy sezgirlik va empatik idrok doirasini keskin cheklaydi. Aksincha, turli xil empatiya kanallari, agar shaxsiyat munosabatlarida hech qanday to'siq bo'lmasa, faolroq va ishonchliroq ishlaydi. Empatiyaning kirib borish qobiliyati insonning muhim kommunikativ xususiyati sifatida qaraladi, bu ochiqlik, ishonch, samimiylik muhitini yaratishga imkon beradi. Har biri o'z xulq-atvori va sheriklarga bo'lgan munosabati bilan axborot-energiya almashinuviga hissa qo'shadi yoki unga to'sqinlik qiladi. Hamkorning bo'shshishi empatiyaga yordam beradi va keskinlik, g'ayritabiiylik, shubha muhiti oshkor qilish va empatik tushunishni oldini oladi. Empatiyani aniqlash shkalasida uchinchi bosqich talabalari boshqani tushunish qobiliyati, o'zini sherikning o'rniga qo'yish qobiliyati yuqoriligi, identifikatsiya hissiyotlarning engilligi, harakatchanligi va moslashuvchanligi, taqlid qilish qobiliyatiga asoslanadi.

4-jadval

«Kasbiy irodaviy-mas'uliyat sifatlarini o'rganish» so'rovnomasi hamda Empatiya, iroda kuchi metodikalari o'rtasidagi bog'liqlik

Mezonlar	Mas' uliyatlilik	Tashabuskorlik	Jur' atlilik	Matonatlilik	Qat' iylilik	G' ayratlilik
Empatiyaning ratsional kanali	0,10	0,04	0,01	0,19	0,32*	0,05
Empatiyaning hissiy kanali	0,28*	-0,10	0,05	0,02	0,09	0,09
Empatiyaning intuitiv kanali	0,12	0,06	-0,15	0,30*	-0,01	0,06
Empatiyaga imkon beruvchi ustanovkalar	0,01	0,01	0,16	0,05	0,01	0,03
Empatiyaning kirishish qobiliyati	0,36*	0,34*	0,06	0,09	0,06	0,09
Empatiyada identifikatsiya	0,05	0,02	0,07	0,31*	-0,01	0,02
Iroda kuchi	0,47*	0,13	0,12	0,12	0,38*	0,14

Izoh: *p<0,05; **p<0,01

«Kasbiy irodaviy-mas'uliyat sifatlarini o'rganish» so'rovnomasi hamda Empatiya, iroda kuchi metodikalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik natijalariga ko'ra, «Mas'uliyatlilik» omili «Empatiyaning hissiy kanali» ($r=0,28$; $p\leq 0,05$),

«Empatiyaning kirishish qobiliyati» ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) va «Iroda kuchi» ($r=0,47$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bogʻlanishlarni qayd etdi.

«Tashabbuskorlik» omili bilan «Empatiyaning kirishish qobiliyati» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) oʻrtasida ijobiy korrelyatsiyatsion aloqadorlik aniqlandi.

«Matonatlilik» omili «Empatiyaning intuitiv kanali» ($r=0,30$; $p\leq 0,05$) va «Empatiyada identifikatsiya» ($r=0,31$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bogʻlanishlarga ega ekanligi qayd etdi.

«Qatʼiylik» omili «Empatiyaning ratsional kanali» ($r=0,31$; $p\leq 0,05$) va «Iroda kuchi» ($r=0,38$; $p\leq 0,05$) bilan bilan ijobiy ahamiyatli korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlangan.

Kasbiy irodaviy-masʼuliyat sifatlarini oʻrganish boʻyicha soʻrovnoma natijalari va «Empatiya» hamda «Iroda kuchi» metodikalari oʻrtasidagi korelyatsion bogʻliqliklar chaqiruvigacha harbiy taʼlim yoʻnalishi talabalari kasbiy tayyorgarligida muhim oʻrin tutadi.

«Masʼuliyatlilik» omili va «Empatiyaning hissiy kanali» oʻrtasida ijobiy bogʻlanish mavjud boʻlib, bu talabalarning hissiy sezgirlik orqali boshqalar bilan hamdardlik koʻrsata olish qobiliyatini kuchaytiradi. Ushbu bogʻlanishning ahamiyati shundaki, talabalarning his-tuygʻularini boshqalar bilan boʻlishish orqali jamoaviy ruhni shakllantirishlari dalillanadi.

«Masʼuliyatlilik» omilining «Empatiyaning kirishish qobiliyati» bilan ijobiy bogʻliqligi, talabalarning jamoada oʻzlarini samarali tarzda tutishiga imkon yaratadi. Ushbu korrelyatsiya, ularning boshqalar bilan yaqin muloqotda boʻlish qobiliyatini mustahkamlashda muhim omil sifatida kuzatiladi. Shuningdek, bu bogʻlanish talabalarning murakkab vaziyatlarda ham oʻz masʼuliyatini his qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Talabalar oʻzaro hamkorlik va boshqalarga nisbatan qiziqish koʻrsatishda muvaffaqiyatli ekanliklari kuzatildi va bu jihat ularning kasbiy oʻsishida muhim rol oʻynaydi.

«Masʼuliyatlilik» va «Iroda kuchi» omillari oʻrtasidagi bogʻliqlik esa talabalar oʻz qarorlarini qatʼiylik bilan qabul qilishlariga yordam beradi. Ushbu bogʻlanish, harbiy taʼlim oluvchilarning kasbiy jarayonlarda irodaviy barqarorlikni saqlashlarini taʼminlaydi. Shuningdek, bu talabalarning jismoniy va ruhiy bosimlarga bardoshli boʻlish qobiliyatini oshiradi. Bunday xususiyatlar, ularning murakkab sharoitlarda oʻzini nazorat qila olish qobiliyatini kuchaytiradi va bu bogʻliqlikning ahamiyati asoslandi.

